

26-dars

Darsning mavzusi: So'roq gap (69 – 72-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: so'roq gaplar haqida bilimlarni aniqlash va matnni ohang yordamida gaplarga ajratishga, gap oxirida zarur tinish belgilarini to'g'ri qo'yishga o'rgatish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgarlar fikrini anglab, ifodalay olish, og'zaki nutqda so'z va gaplar ohangiga rioya qila olish; gapning turlarini farqlay olish, gapning ohangiga ko'ra tinish belgilarini (nuqta, so'roq, undov belgilari) ishlata olish, darak gap haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash; o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga kirishish; mustaqil o'qib-o'rganish va bilimni muntazam oshirib borishga o'rgatish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qilgan holda gaplar tuzish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Dars turi: mustahkamlovchi dars

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, ko'rgazmalilik, "Blits so'rov" ta'limiy o'yini

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, turli so'zlar yozilgan tarqatmalar.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Otalar so'zi – aqlning ko'zi

III. Mustahkamlash

69-mashq ustida ishlanadi. Avval berilgan gaplar darak va buyruq gaplar kabi ikki guruhga ajratiladi va ular so'roq gapga aylantirilgan sherigi yordamida ko'chirib yoziladi.

Darak gaplar

Men idishlarni yuvdim-Men idishlarni yuvdimmi?

Anvar chiroyli yozdi. – Anvar chiroyli yozdimi?

Chiroyli yozishni mashq qildik. – Chiroyli yozishni mashq qildikmi?

Qodir qiyin masalani yecha oldi. – Qodir qiyin masalani yecha oldimi?

Buyruq gaplar

Yo'l harakati qoidalariga rioya qiling. – Yo'l harakati qoidalariga rioya qilasizmi?

Tanaffusda hovlida o'ynang. – Tanaffusda hovlida o'ynaysizmi?

70-mashq yozma bajariladi. Berilgan misollardan so'roq gaplar hosil qilish uchun qavs ichidagi so'zlardan muqobilini qo'yish talab etiladi.

1. Tal'at rubob chaladimi?
2. Bilim baxt keltiradimi?
3. Oltin olma, duo ol. Duo oltin emasmi?
4. Aziza gullarga suv quydimi?
5. Uyga qaytamizmi?
6. Buvingga ko'zoynakni olib borib berdingmi?

71-mashq guruhlarda ishlanadi. Maqollarning bo'sh o'rinlari to'ldirilib, ma'nolari izohlanadi. O'quvchilar fikrlari tinglanadi.

1. Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l.
2. Oz so'zla, ham soz so'zla.
3. Shirin so'z bilan toshni ham eritib yuborsa bo'ladi.
4. To'g'ri so'z toshni yorar, Egri so'z boshni.
5. Sabr-toqatli bo'lsang, omading yurishadi.
6. Ota-onangga izzatli bo'l, ularni hurmat qil.
7. Do'st-birodar orttir. Kuch-qudrating ortadi.

IV. Darsga yakun yasash va baholash

Dars yakunida o'quvchilar bugungi darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

72-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.